



**ANTONYMY IN THE LEXICAL-SEMANTIC SYSTEM OF THE ARABIC
LANGUAGE: A THEORETICAL INTERPRETATION OF THE PHENOMENA OF
TAḌĀDD AND AL-ADDĀD**

Shukhrat M. Mirziyadov

Assistant professor

Department of Arabic Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

mii.prorektor@tsuos.uz

Tashkent, Uzbekistan

Shokhida T. Khurmamatova

1 year student of Master degree faculty

Department of Arabic Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Shaxisha19975@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: antonymy; تَضَادٌ taḍādd; الأضداد al-addād, lexical-semantic relation; gradable antonyms; complementary antonyms; conversive antonyms; Arabic lexicography; تفسير بالضد tafsīr bi-l-ḍidd semantic-pragmatic interpretation.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the phenomenon of antonymy in the Arabic language within the framework of classical and modern approaches. It elucidates the terminological scope, classification, and interpretative mechanisms of تَضَادٌ taḍādd – “opposition between two distinct lexemes” – and الأضداد al-addād – “the concentration of opposite meanings within a single lexeme.” The study compares general semantics with the Arabic linguistic tradition and demonstrates methods of semantic determination through antonymy in lexicography and exegetical practice, particularly تفسير بالضد tafsīr bi-l-ḍidd. The novelty of the research lies in interpreting the issue of antonymy within an integrative model and clearly delimiting the scientific status of the phenomenon of الأضداد al-addād at the intersection of homonymy, polysemy, and pragmatics, based on classical debates and modern semantic categories.

Received: 08.05.26

Accepted: 09.05.26

Published: 10.05.26

As a result, antonymic relations in Arabic are systematized into gradable, complementary, conversive, and directional

types. The factors underlying the emergence of الأضداد al-aḍḍād as well as their functions in text and discourse are substantiated. It is scientifically demonstrated that a comprehensive understanding of antonymy in Arabic requires harmonizing historical-lexical heritage with modern semantic analysis, particularly emphasizing that taking الأضداد al-aḍḍād into account in Qur'anic and exegetical contexts increases interpretative accuracy.

ARAB TILINING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMIDA ANTONIMIYA: TAḌĀDD VA AL-AḌḌĀD FENOMENINING NAZARIY TALQINI

Shuxrat M. Mirziyatov

Professor v.b.

Arabshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

mii.prorektor@tsuos.uz

Toshkent, O'zbekiston

Shoxida T. Xurmamatova

Magistratura 1-bosqich talabasi

Arabshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Shaxisha19975@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: antonimiya, تَضَادٌ taḍādd; الأضداد al-aḍḍād, leksik-semantik munosabat, gradativ antonimlar, komplementar antonimlar, konversiv antonimlar, arab lug'atchiligi, تفسير بالضد tafsīr bi-l-ḍidd semantik-pragmatik talqin.

Annatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi antonimiya fenomeni klassik va zamonaviy yondashuvlar kesimida nazariy jihatdan tahlil qilinib, تضاد taḍādd – “ikki alohida leksema o'rtasidagi zidlik” hamda الأضداد al-aḍḍād – “bitta leksemada qarama-qarshi ma'no jamlanishi” hodisasining terminologik doirasi, tasnifi va izohlash mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqotda umumiy semantika (G'arb an'anasi) bilan arab tilshunosligi an'anasi qiyoslanib, lug'atchilik va tafsir amaliyotida antonimiya orqali ma'no aniqlash usullari xususan, تفسير بالضد tafsīr bi-l-ḍidd ko'rsatib beriladi. Ishning yangiligi shundaki, antonimiya masalasi integrativ modelda talqin qilinib, الأضداد al-aḍḍād fenomenining omonimiya-polisemiya-pragmatika kesishmasidagi ilmiy maqomi klassik bahslar va zamonaviy semantik kategoriyalar asosida aniq chegaralanadi.

Natijada arab tilidagi antonimik munosabatlar gradativ, komplementar,

konversiv va yoʻnalishli turlar doirasida tizimlashtirilib, الأضداد al-aḍḍādning yuzaga kelish omillari hamda matn/diskursdagi funksiyalari asoslab berildi. Arab tilida antonimiya hodisasini toʻlaqonli anglash uchun tarixiy-lugʻaviy merosni zamonaviy semantik tahlil bilan uygʻunlashtiruvchi yondashuv zarurligi, ayniqsa Qurʻon va tafsir kontekstida الأضداد al-aḍḍādni hisobga olish talqinning aniqligini oshirishi ilmiy jihatdan dalillandi.

АНТОНИМИЯ В ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ АРАБСКОГО ЯЗЫКА: ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНОВ TAḌĀDD И AL-AḌḌĀD

Шухрат М. Мирзиятов

И.о. профессора

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

mii.prorektor@tsuos.uz

Ташкент, Узбекистан

Шохида Т. Хурмаматова

Магистрант 1 курса

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Shaxisha19975@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: антонимия, تَضَادَّ taḍādd; الأضداد al-aḍḍād, лексико-семантические отношения, градуальные антонимы, комплементарные антонимы, конверсивные антонимы, арабская лексикография, تفسير بالضد tafsīr bi-l-ḍidd, семантико-прагматическая интерпретация.

Аннотация: В данной статье представлен теоретический анализ феномена антонимии в арабском языке в рамках классических и современных подходов. Раскрываются терминологические границы, классификация и интерпретационные механизмы понятий تَضَادَّ taḍādd - «противопоставление двух различных лексем» - и الأضداد al-aḍḍād - «сосредоточение противоположных значений в одной лексеме». В исследовании сопоставляются общая семантика и арабская лингвистическая традиция, а также демонстрируются способы семантической интерпретации через антонимию в лексикографии и тафсирной практике, в частности метод تفسير بالضد tafsīr bi-l-ḍidd - «толкование через противоположность».

Научная новизна исследования заключается в интерпретации проблемы антонимии в рамках интегративной модели и в чётком определении научного статуса феномена الأضداد al-aḍḍād на пересечении омонимии, полисемии и прагматики на основе классических научных дискуссий и современных семантических категорий.

В результате антонимические отношения в арабском языке систематизируются по следующим типам: градуальные, комплементарные, конверсивные и направленные. Обосновываются факторы, лежащие в основе возникновения явления الأضداد al-aḍḍād, -а также их функции в тексте и дискурсе. Научно доказано, что комплексное понимание антонимии в арабском языке требует согласования историко-лексического наследия с современным семантическим анализом. Особо подчёркивается, что учёт феномена الأضداد al-aḍḍād в кораническом и тафсирном контексте способствует повышению точности интерпретации.

Kirish. Leksik-semantik munosabatlar tizimida antonimiya qarama-qarshi ma'nolarni juft holda tartiblaydigan, tushunchalarning semantik chegarasi va mazmun qutblanishini belgilovchi asosiy hodisalardan biridir. Umumiy semantika doirasida antonimiya sinonimiya va polisemiya bilan bir qatorda lug'aviy tizimning muhim komponenti sifatida qaralib, gradativ, komplementar va konversiv kabi turlari bilan tavsiflanadi (Cruse, 1986; Lyons, 1977). Shu jihatdan antonimlar tilning semantik strukturasi va diskurs tashkilida muhim rol o'ynab, qarama-qarshilik, kontrast va ma'no aniqligini ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, gradativ zidlikda "katta-kichik" turidagi qutblanish arab tilida كَبِيرٌ-صَغِيرٌ kabīr-ṣaḡīr, "uzun-qisqa" طَوِيلٌ-قَصِيرٌ ṭawīl-qaṣīr ko'rinishida yuzaga chiqadi, komplementar zidlikda "tirik-o'lik" حَيٌّ-مَيِّتٌ ḥayy-mayyit kabi oraliq holatni qabul qilmaydigan oppozitsiya kuzatiladi.

Arab tilshunosligi an'anasida antonimiya masalasi o'ziga xos nazariy asosga ega bo'lib, bu hodisa nafaqat ikki alohida leksema o'rtasidagi zidlik تَضَادٌ – taḍādd, balki bitta leksema tarkibida qarama-qarshi ma'noning mujassamlanishi al-aḍḍād - الأضداد bilan ham tavsiflanadi. Klassik arab lug'atchiligida الأضداد al-aḍḍād hodisasi mustaqil lingvistik fenomen sifatida o'rganilgan va maxsus lug'atlar hamda risolalarda tizimlashtirilgan (Al-Anbarī, 1987). Masalan, bir shakl - ikki zid ma'no hodisasi sifatida مَوْلَى mawlā so'zining kontekstga qarab "xo'jayin/homiy" va

“qul/bo‘ysunuvchi” mazmunlari, yoki الجَوْنُ al-jawn leksemasining “oq” va “qora” rang ma’nolarini berishi klassik manbalarda الأَضْدَاد al-aḍḍād doirasida zikr etiladi.

Xususan, Ibn Manzur o‘zining mashhur لسان العرب Lisān al-‘Arab “Arab tili” lug‘atida ko‘plab leksemalarni ularning zid ma’nolari orqali sharhlab, antonimiyani lug‘aviy ma’noni aniqlashtirishning muhim usuli sifatida qo‘llagan (Ibn Manzūr, 1990). Bu lug‘atchilik amaliyotida النَّفْسِيُّرُ zidduhu “uning qarama-qarshisi” formulasi orqali ma’no chegarasini belgilash, ya’ni التَّفْسِيرُ بِالصِّدِّ tafsīr bi-l-ḍidd usulining faol qo‘llanishini ko‘rsatadi: masalan, هَاقِقٌ ḥāqq “haqiqat” izohida ko‘pincha بَاطِلٌ bāṭil “yolg‘on” zidligi, نُورٌ nūr “nur” izohida ظُلْمَةٌ ḡulma “zulmat” zidligi keltirilishi kabi.

Zamonaviy arab tilshunosligida esa antonimiya hodisasi umumiy semantika nazariyasi bilan uyg‘un holda qayta talqin qilinib, uning leksik-semantik tizimdagi o‘rni, tasnifi va funksional xususiyatlari keng qamrovda o‘rganilmoqda. Xususan, zamonaviy tadqiqotchilar antonimiyani faqat ikki alohida leksema o‘rtasidagi zidlik sifatida emas, balki الأَضْدَاد al-aḍḍād fenomenini ham hisobga olgan holda, omonimiya, polisemiya va pragmatika bilan bog‘liq murakkab semantik hodisa sifatida izohlashmoqda (Ya‘qub, 2008; Al-Khuli, 2003). Masalan, تَضَادٌ taḍādd doirasida هَاسَنٌ-قَبِيحٌ ḥasan-qabīḥ “yaxshi-yomon”, خَفِيفٌ - ثَقِيلٌ ḡafīf-ḡaqīl “og‘ir-yengil” kabi juftliklar, الأَضْدَاد al-aḍḍād doirasida esa kinoya yoki eufemizm bilan “ko‘ruvchi” mazmunidagi بَصِيرٌ baṣīr so‘zining “ko‘r” kishiga nisbatan yumshatib qo‘llanishi kabi holatlar muhokama qilinadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda antonimiya va الأَضْدَاد al-aḍḍād tushunchalarining nazariy chegaralari hamda lingvistik maqomi borasida yagona yondashuv mavjud emas. Klassik arab tilshunosligida الأَضْدَاد al-aḍḍād til boyligining tabiiy ko‘rinishi sifatida qabul qilingan bo‘lsa, ayrim zamonaviy yondashuvlarda u omonimiya yoki semantik rivojlanish natijasi sifatida talqin qilinadi. Masalan, “bir shakl ikki zid ma’noni bera olmaydi” degan qat’iy yondashuv doirasida الأَضْدَاد al-aḍḍād misollari lahjaviy farqlar yoki tarixiy semantik rivojlanish bilan izohlanadi. Bu esa arab tilida antonimiya hodisasining nazariy asoslarini kompleks va integrativ yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi arab tilida antonimiya fenomenini klassik va zamonaviy yondashuvlar kesimida nazariy jihatdan tahlil qilish, تَضَادٌ taḍādd va الأَضْدَاد al-aḍḍād hodisalarining lingvistik maqomini aniqlash hamda ularning leksik-semantik tizimdagi o‘rnini ilmiy asosda yoritishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati arab tilining semantik tizimidagi qarama-qarshilik fenomenini chuqurroq anglashga xizmat qilishi, shuningdek arab lug‘atchiligi, semantika tadqiqotlari uchun nazariy asos yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotni usullari. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Bibliografik (manbashunoslik) tahlil: klassik va zamonaviy adabiyotlar korpusidan antonimiya bo'yicha tushunchalar, terminlar va yondashuvlar tanlab olindi va tizimlashtirildi, (jumladan, الأضداد / تضاد terminlarining qo'llanish doirasi hamda “zidduhu...” (ضِدُّهُ) formulali leksikografik izohlar)

- Tavsifiy (deskriptiv) tahlil: taḍādd va al-ḍād hodisalari terminologik doirasi, izohlash mexanizmlari hamda lug'atchilik amaliyotidagi ko'rinishlari bayon qilindi, (masalan, “tashqi zidlik” كَبِيرٌ—صَغِيرٌ va “ichki zidlik” مَوْلَى ning ikki qirrali talqini)

- Qiyosiy-nazariy (komparativ) yondashuv: umumiy semantika (G'arb an'anasi)dagi antonimiya modeli arab tilshunosligi an'anasi bilan solishtirilib, o'xshash va farqli jihatlar ajratildi, (Cruse/Lyons tasnifi va arab an'anasidagi الأضداد / تضاد)

- Semantik tasniflash: antonimik munosabatlar gradativ, komplementar, konversiv va yo'nalishli turlar doirasida guruhlandi; (masalan, كَبِيرٌ—صَغِيرٌ; حَيٌّ—مَيِّتٌ; بَاعَ—اشْتَرَى / أَخَذَ—أَعْطَى (فَوْقَ—تَحْتَ)

- Kontekstual-pragmatik tahlil: al-ḍād misollarining matn/diskursdagi funksiyalari (kontrast, ta'kid, stilistik effekt, yashirin antonimiya) hamda ma'no ajratishdagi kontekst signallari asoslandi (masalan, بَصِيرٌ ning kinoyaviy qo'llanishi yoki صَرِيمٌ ning “tun/tong” talqini kabi holatlarda kontekst hal qiluvchi bo'lishi).

Natijalar.

Arab tilida antonimiya fenomenining struktur-semantik tizimi

Bos qich	Tizim	Tarkibi	Ilmiy tavsif	Arabcha	O'zbekcha
1	Antonimiya fenomeni	Leksik-semantik qarama-qarshilik	Arab tilida ma'no differentsiatsiyasini ta'minlovchi asosiy semantik kategoriya	بَاطِلٌ - حَقٌّ ظُلْمَةٌ - نُورٌ	haq - botil; nur - zulmat
2	Asosiy turlari	تَضَادٌ <i>taḍādd</i>	Ikki alohida leksema o'rtasidagi zidlik	كَبِيرٌ - صَغِيرٌ طَوِيلٌ - قَصِيرٌ	katta - kichik uzun - qisqa
		الأضداد <i>al-ḍād</i>	Bitta leksemada qarama-qarshi ma'noning jamlanishi	مَوْلَى - الْجَوْنُ صَرِيمٌ	xo'jayin/qul; oq/qora; tun/tong
3	Semantik tasnif	Gradativ antonimlar	Darajalanadigan zidlik	كَبِيرٌ - صَغِيرٌ -سَاخِنٌ بَارِدٌ	katta - kichik; issiq - sovuq
		Komplementar antonimlar	Mutlaq zidlik	مَيِّتٌ - حَيٌّ	tirik - o'lik
		Konversiv antonimlar	Munosabatga asoslangan zidlik	بَاعَ - اشْتَرَى أَعْطَى - أَخَذَ	sotdi - sotib oldi; oldi - berdi

		Yoʻnalishli antonimlar	Fazoviy zidlik	تَحْتَ-فَوْقَ	yuqori - past
4	al-ʻaddād omillari	Semantik rivoj	Maʼnoning tarixiy oʻzgarishi	صَرِيحٌ	tun yoki tong
		Lahjaviy differensiatsiya	Shevalar taʼsirida maʼno farqi	الْجَوْنُ	oq yoki qora
		Eufemizm	Teskarisini aytib yumshatish	بَصِيرٌ	kinoya bilan koʻr
		Semantik dualizm	Munosabatning ikki qirradi	مَوْلَى	xoʻjayin yoki qul
5	Diskurs funksiyasi	Kontrast	Qarama-qarshilik yaratish	بَاطِلٌ-حَقٌّ	qarama-qarshi qoʻyish
		Taʼkid	Maʼnoni kuchaytirish	نَهَارٌ-لَيْلٌ	kecha - kunduz
		Stilistik effekt	Ekspressivlik yaratish	مَيِّتٌ-حَيٌّ	stilistik zidlik
		Yashirin antonimiya	Kontekst orqali zidlik	كَبِيرٌ-صَغِيرٌ	implicit zidlik
6	Lugʻaviy funksiya	tafsīr bi-l-ḍidd	Zid maʼno orqali aniqlash	ضِدُّ النُّورِ الظُّلْمَةُ	lugʻaviy izoh usuli
7	Natija	Struktur tizim	Antonimiya arab tilining semantik differensiatsiya mexanizmini tashkil qiladi	—	asosiy semantik mexanizm

Ushbu jadval arab tilida antonimiya fenomenining struktur-semantik tizimini koʻrsatadi. Natijalarga koʻra, antonimiya ikki asosiy turga ajraladi: تَضَادٌّ taḍādd (ikki alohida leksema oʻrtasidagi zidlik) va الأضداد al-ʻaddād (bitta leksemada qarama-qarshi maʼnoning jamlanishi). الأضداد al-ʻaddād hodisasining yuzaga kelish omillari sifatida eufemizm, semantik rivoj, lahjaviy differensiatsiya va semantik munosabatning ikki qirraliligi aniqlangan. Masalan, eufemizm yoki kinoyi doirasida بَصِيرٌ baṣīr leksemasi “koʻruvchi” asl maʼnosidan chekinib, “koʻr” kishiga nisbatan yumshatib qoʻllanadi; munosabat dualizmi doirasida مَوْلَى mawlā bir munosabatning ikki tomonini ifodalashi mumkin. Shuningdek, antonimik munosabatlar gradativ, komplementar, konversiv va yoʻnalishli turlarga tizimlashtirildi: كَبِيرٌ-صَغِيرٌ kabīr-ṣaḡīr “katta va kichik”, حَيٌّ-مَيِّتٌ ḥayy - mayyit “hayot va oʻlim”, بَاعَ اشْتَرَى - بَاعَ bāʻa - ishtarā “sotdi - sotib oldi”, أَخَذَ - أَعْطَى akhadha - aʻṭā “oldi – berdi”, فَوْقَ - تَحْتَ fawqa - taḥṭa “yuqori – past”. Tadqiqot natijalari antonimlarning matn va diskursdagi asosiy funksiyalari kontrast, taʼkid, stilistik effekt va yashirin semantik oppozitsiyani ifodalash ekanini koʻrsatdi. Bundan tashqari, antonimiya arab lugʻatchiligi va tafsir anʼanasida تَفْسِيرٌ بِالضَّدِّ tafsīr bi-l-ḍidd usuli orqali maʼnoni aniqlashning muhim mexanizmi sifatida xizmat qilishi aniqlandi: lugʻatlarda ضِدُّهُ zidduhu formulasi orqali soʻz maʼnosi qarama-qarshi qutb bilan chegaralanadi.

Muhokama. Arab tilida antonimiya hodisasini nazariy jihatdan izohlashda ikki darajali model zarur boʻladi: تَضَادٌّ taḍādd va الأضداد al-ʻaddād . Tadqiqot natijalari antonimik munosabatlar

faqat “ikki leksema o‘rtasidagi zidlik” bilan cheklanmasligini, balki “bitta leksema tarkibida qarama-qarshi ma’no jamlanishi” ham arab tilining semantik differentsiatsiya mexanizmini tashkil etishini ko‘rsatadi. Shu bois antonimiya arab tilida struktur-semantik tizim sifatida talqin qilinadi: terminologik ajratish, semantik tasnif, yuzaga kelish omillari, diskurs funksiyalari, lug‘aviy-interpretativ mexanizm.

1. Terminologik doira va nazariy chegaralar تَضَادَّ

taḍādd va الأضداد al-aḍḍād orasidagi farq nazariy chegarani belgilaydi. تَضَادَّ taḍādd umumiy semantikada tavsiflangan antonim munosabatiga mos kelib, ma’no qutblari turli leksemalarda beriladi: masalan, “haqiqat-botil” بِاطِلٌ-حَقٌّ, “kun-tun” لَيْلٌ-نَهَارٌ, “old-orqa” خَلْفٌ-أَمَامٌ. الأضداد al-aḍḍād esa klassik arab lug‘atchiligida mustaqil fenomen sifatida ko‘rilib, bitta shaklning qarama-qarshi mazmunlarni berishi bilan izohlanadi: مَوْلَى, mawlā “xo‘jayin yoki qul”, الْجَوْنُ al-jawn “oq yoki qora”, صَرِيمٌ ṣarīm “tun yoki tong” kabi. Natijada “antonimiya” atamasining qo‘llanish doirasi ikki yo‘nalishda shakllanadi: (a) leksik-paradigmatik zidlik تَضَادَّ taḍādd, (b) leksik ichki zidlik الأضداد al-aḍḍād. Bu ikki qavatni ajratmaslik ilmiy adabiyotda terminologik chalkashlik keltirib chiqaradi: bir yondashuv “antonimiya”ni الأضداد aḍḍād doirasiga toraytiradi, boshqa yondashuv esa الأضداد aḍḍādni omonimiya yoki semantik rivojlanish natijasi sifatida chetga suradi. (Al-Anbarī, 1987; Ya‘qub, 2008; Al-Khuli, 2003).

2. الأضداد al-aḍḍādning lingvistik maqomi: omonimiya–polisemiya–pragmatikaning

kesishmasi al-aḍḍād fenomeni oddiy “ikki ma’no” hodisasi sifatida emas, balki omonimiya–polisemiya–pragmatika kesishmasida turgan murakkab kategoriya sifatida ko‘rinadi. Bu uchlikdan qaysi biri izohda ustun bo‘lishi الأضداد al-aḍḍādning yuzaga kelish omillariga bog‘liq:

- Lahjaviy differentsiya ustun bo‘lsa, الأضداد al-aḍḍād ko‘pincha omonimiya turiga yaqinlashadi: turli qabilaviy qo‘llanishlar umumiy lug‘at tizimida bitta shakl ostida jamlanadi (masalan, bir lahjada ma’lum rang yoki holatni anglatuvchi leksema boshqa lahjada zid qutbni bildirishi ehtimoli).

- Semantik rivoj ustun bo‘lsa, hodisa polisemiya yo‘nalishida izohlanadi: tarixiy taraqqiyot jarayonida ma’no kengayadi, ko‘chadi va qarama-qarshi qutbga o‘tishi mumkin; masalan, “uzilish/kesilish” asosiy semasidan kelib chiqib صَرِيمٌ ṣarīm ning لَيْلٌ layl “tun” va صُبْحٌ ṣubḥ “tong/ertalab” ma’nolariga talqin qilinishi.

- Eufemizm va stilistik motivatsiya ustun bo‘lsa, pragmatik qatlam hal qiluvchi bo‘ladi: ma’no kontekst va nutqiy maqsad orqali aniqlanadi, qarama-qarshi talqin “yumshatish/kinoya” strategiyasi sifatida ishlaydi; masalan, بَصِيرٌ baṣīr ning ko‘zi ojiz kishiga “ko‘ruvchi” mazmunida ehtirom bilan qo‘llanishi (تَلطِيفًا/كِنَايَةً).

• Semantik dualizm (munosabatning ikki qirradi) ustun bo'lsa, bir lexema bir munosabatning qarama-qarshi rollarini ifodalaydi.

Shu tartib الأضداد al-ʿaddādni “bor-yo‘q” bahsiga siqib qo‘ymasdan, uning ilmiy maqomini sabab-mezonlar asosida aniqlash imkonini beradi (Al-Anbarī, 1987; Al-Khuli, 2003; Ya‘qub, 2008).

3. Semantik tasnif: gradativ, komplementar, konversiv, yo‘nalishli

Natijalarda antonimik munosabatlar gradativ, komplementar, konversiv va yo‘nalishli turlarga ajratildi. Bu tasnif ikki jihatdan muhim:

1. Umumiy semantika modeli bilan uyg‘unlik: gradativ (darajalanadigan), komplementar (mutlaq), konversiv (munosabatga asoslangan) qarama-qarshiliklar antonimiya tahlilining tayanch birliklari sifatida ko‘riladi (Cruse, 1986; Lyons, 1977). Arab tili materialida bular mos ravishda: صَغِيرٌ-كَبِيرٌ (gradativ), مَمِيْتُ-حَيٌّ (komplementar), أَعْطَى-أَخَذَ / اشْتَرَى-بَاعَ (konversiv) ko‘rinishida ifodalanadi.

2. Arab tili materiali bilan boyish: yo‘nalishli antonimiya (fazoviy/vektorli qutblanish) arab diskursida ham tizimli ko‘rinishga ega bo‘lib, semantik oppozitsiyaning matndagi “chiziqli” qurilishini ko‘rsatadi: تَحْتَ-فَوْقَ fawqa – tahta “yuqori - past”, جَنُوبٌ-شَمَالٌ shamāl - janūb “shimol - janub”, غَرْبٌ-شَرْقٌ sharq - g‘arb “sharq - g‘arb” kabi.

Bu tasnif taḍādd doirasidagi juftliklar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlasa-da, al-ʿaddād misollarida ham kontekstual tahlil yordamida qaysi turga yaqin oppozitsiya yuzaga chiqishini aniqlash mumkin. Ayniqsa konversiv munosabatlar al-ʿaddādning “munosabatning ikki qirradi” omili bilan kesishadi (Al-Khuli, 2003).

4. Diskurs funksiyalari: kontrast, ta‘kid, stilistik effekt, yashirin antonimiya

Antonimiya matn va diskursda semantik “qutblar”ni faollashtirib, mazmuni tashkil etadi. Natijalarda qayd etilgan to‘rt funksiya bu mexanizmni aniq ko‘rsatadi.

• Kontrast: qarama-qarshilik orqali mavzu chegarasi va semantik qutblanish belgilanadi نُورٌ-لَمَةٌ nūr-zulma “nur-zulmat”.

• Ta‘kid: zid qo‘yish nutqiy urg‘uni kuchaytiradi va ma‘noni “markazlashtiradi”; masalan, “u falon emas, balki falon” tipidagi inkor-tasdiq konstruktsiyalarida (... بَلْ ... لَيْسَ) zid qutblar ta‘kidni oshiradi.

• Stilistik effekt: oppozitsiya ekspressivlik, obrazlilik va retorik kuchni oshiradi; arab balog‘atida bu ko‘pincha طَبَاقٌ tibāq va مُقَابَلَةٌ muqābala doirasida ko‘riladi.

• Yashirin antonimiya: matnda bir qutb ochiq aytilib, ikkinchi qutb kontekst orqali tiklanadi; bu antonimiyaning pragmatik tabiatini kuchli ko‘rsatadi (masalan, “boylar boyimoqda” mazmuni bilan “kambag‘allar qashshoqlashmoqda” qutbi kontekstda anglashilishi).

Korpus tadqiqiga tayangan ishlarda modern standart arab tilida antonimlar ma'lum sintaktik ramkalarda (masalan, "X va Y" ...، "...dan ...gacha" مِنْ ... إِلَى ...) tez-tez birga kelishi hamda pragmatik vazifalarni bajarishi qayd etiladi (Al-Hedayani, 2016). Maqollardagi antonimiya ham "kanonik" oppozitsiya sifatida kontrast va ta'kidni kuchaytirishi bilan tavsiflanadi (Hassanein & Mahzari, 2021).

5. Lug'atchilik va tafsir amaliyoti: تفسير بالضد tafsīr bi-l-ḍidd mexanizmi Antonimiya arab lug'atchiligi va tafsir an'anasida ma'noni aniqlashning amaliy usuli sifatida ko'rinadi. بالضد تفسير tafsīr bi-l-ḍidd - "zid orqali sharhlash" - leksemaning semantik chegarasini belgilashga xizmat qiladi. اللسان العرب lisān al-'Arabda ko'plab birliklarning "zid" orqali izohlanishi antonimiyaning leksikografik instrument sifatidagi rolini ko'rsatadi (Ibn Manzūr, 1990). Shu mexanizm al-ḍād holatlarida yanada muhim: bitta shakl ikki qarama-qarshi mazmunni berishi mumkin bo'lgan joyda, kontekst va zid ma'no orqali aniqlash talqinning aniqligini oshiradi. Qur'on va tafsir kontekstida ham mufassirlar ba'zan "ya'ni ziddahu..." (... ضِدُّهُ يَعْنِي) kabi izohlar bilan lafzning semantik doirasini aniqlashtiradilar; ayniqsa الأضداد al-ḍād ehtimoli bo'lgan joylarda kontekst signallari (siyoq-siboq) hal qiluvchi bo'ladi.

6. Integrativ yondashuvning natijaviyligi Klassik meros (الأضداد ḍādga bag'ishlangan risolalar va lug'atlar) va zamonaviy semantika apparatini bir tizimda qo'llash antonimiyani "faqat lug'aviy ro'yhat" yoki "faqat nazariy model" darajasida qoldirmaydi. Integrativ yondashuv quyidagilarni birlashtiradi:

- taḍādd va الأضداد al-ḍādning terminologik ajratilishi;
- antonimlarning semantik tasnifi (تَحْتِ - فَوْقَ، اشْتَرَى - بَاعَ، مَيِّتٌ - حَيٌّ، صَغِيرٌ - كَبِيرٌ);
- الأضداد al-ḍādning yuzaga kelish omillarini iyerarxik izohlash (ازدواج/لهجات/تطور/كناية) (الدور);
- diskurs funksiyalarini kontekstual-pragmatik asoslash;
- تفسير بالضد tafsīr bi-l-ḍiddni interpretativ mexanizm sifatida ko'rsatish ("... ضِدُّهُ" formulasi).

Natijada arab tilida antonimiya semantik differensiyani ta'minlovchi yadro kategoriya sifatida konseptuallashtiriladi; الأضداد al-ḍād esa omonimiya-polisemiya-pragmatika kesishmasida talqin qilinadigan maxsus holat sifatida ilmiy chegaralanadi (Ya'qub, 2008; Al-Khuli, 2003; Cruse, 1986).

Xulosa. Mazkur tadqiqotda arab tilida antonimiya fenomeni klassik va zamonaviy yondashuvlar asosida nazariy jihatdan tahlil qilindi va uning struktur-semantik tabiati aniqlandi. Natijalar arab tilida antonimiya ikki asosiy shaklda - ikki alohida leksema o'rtasidagi qarama-qarshilik تضاد taḍādd va bitta leksema tarkibida qarama-qarshi ma'no jamlanishi الأضداد al-ḍād

orqali namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Shu asosda antonimiya arab tilida ma'no differensiyasini ta'minlovchi muhim semantik mexanizm sifatida belgilandi.

Tadqiqot davomida antonimik munosabatlar gradativ, komplementar, konversiv va yo'nalishli turlarga ajratilib, ularning semantik tizim va diskursdagi roli asoslab berildi. Bunda gradativ (صَغِيرٌ-كَبِيرٌ kabīr-ṣaḡīr), komplementar (حَيٌّ-مَيِّتٌ ḥayy – mayyit), konversiv (أَعْطَى-أَخَذَ) akhadha – a'tā) va yo'nalishli (فَوْقَ-تَحْتَ fawqa – taḥta) oppozitsiyalar antonimiyaning paradigmatic hamda funksional qirralarini yaqqol ko'rsatdi. Shuningdek, al-aḍḍād hodisasining semantik rivojlanish, lahjaviy differensiya va pragmatik omillar bilan bog'liqligi aniqlandi; xususan, بَصِيرٌ baṣīr, مَوْلَى mawlā, صَرِيمٌ ṣarīm tipidagi birliklar ma'nosi kontekst orqali ajratilishi ta'kidlandi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilida antonimiya tilning semantik tizimini tashkil etuvchi asosiy kategoriya bo'lib, uni to'liq anglash klassik lug'aviy meros va zamonaviy semantik yondashuvni uyg'un holda qo'llashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Anbarī, Abū al-Barakāt b. al-Mustanīr. (1987). The Book of Antonyms. Kitāb al-Aḍḍād. – Beirut: al-Maktabah al-'Aṣriyyah. 256 p. (in Arabic)
2. Al-Hedayani, R. (2016). Antonymy in Modern Standard Arabic. Doctoral dissertation. – Brighton: University of Sussex. 384 p. (in English)
3. Al-Khuli, M. A. (2003). The Science of Semantics. 'Ilm al-Dalālah. – Cairo: Maktabat al-Kulliyāt al-Azhariyya. 384 p. (in Arabic)
4. Al-Yāsīn, Muḥammad Ḥasan. (1974). Antonyms in Language. al-Aḍḍād fī al-Lughā. – Baghdad: Ma'arif Publishing House. 200 p. (in Arabic)
5. Cruse, D. A. (1976). Three Classes of Antonym in English.– *Lingua*, 38, 281–292. (in English)
6. Cruse, D. A. (1986). *Lexical Semantics*. – Cambridge: Cambridge University Press. – 310 p. (in English)
7. Hassanein, H., & Mahzari, M. (2021). A Taxonomy of Antonymy in Arabic: Egyptian and Saudi Proverbs in Comparison. *Open Linguistics*, 7(1), 200–222. (in English)
8. Ibn Manzūr, Muḥammad. (1990). *The Arab Tongue*. Lisān al-'Arab. Vol. 1–15. – Cairo: Dār Ṣādir. 15 vols. (in Arabic)
9. Lyons, J. (1977). *Semantics*. Vol. 1–2. – Cambridge: Cambridge University Press. – 897 p. (in English)
10. Mufid, M. (2017). Antonyms in the Qur'an from the Perspective of Ali al-Khuli. *An-Nas: Jurnal Humaniora*, 2(1), 120–131. (in Indonesian)
11. Ridlo, U. (2017). Synonyms and Antonyms in the Qur'an. *Jurnal al-Bayan: Jurnal Jurusan Pendidikan Bahasa Arab*, 9(2), 281–295. (in Indonesian)

12. Sholih, H. H. (2010). The Phenomenon of Semantic Antonymy in the Holy Qur'an and its Effect on Meaning (*Zāhirat al-Taḍādd al-Dalālī fī al-Qur'ān al-Karīm wa Atharuhā fī al-Ma'nā*). *Al-Lisāniyyāt*, 13(2), 45–60. (in Arabic)

13. Syarifah, N. (2022). Differences between Arabic Antonym (*al-Taḍādd*) and Interpretation of the Qur'an. *Kawanua International Journal of Multicultural Studies*, 3(2), 36–43. (in English)

14. Ya'qub, Amil B. (2008). Chapters in Philological Semantics. *Fuṣūl fī Fiqh al-Lughā*. – Damascus: 'Alam al-Kutub. 275 p. (in Arabic)